

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 13 - fevral

62-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

XDFU

_ -nusxa

**Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani "Shodlik" MFY hududidan
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qaroriga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani hokimligining 2022-yil 7-oktabrdagi 01-10/1360-son buyurtma xatini inobatga olib, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunlariga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligining ijobiy xulosasi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari va kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. To'rtko'l tumani "Shodlik" MFY hududidagi tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan 0,8316 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq To'rtko'l tumani hokimligiga avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash joyini (jarima maydonchasi) tashkil etish uchun doimiy foydalanish huquqi asosida qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ajratib berilsin.

3. To'rtko'l tumani hokimligi (R.Shamuratov)ga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda:

- ajratilgan yer maydoniga qurilish loyiha hujjatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish;
- ajratilgan yer maydonida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;
- ajratilgan yer uchastkasida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash vazifalari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (U.Jalelov) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari E.Atashov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023 yil 13 fevraldagi
62-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

To'rtko'l tumani "Shodlik" MFY hududidan To'rtko'l tuman hokimligiga elektron qayd etish va kuzatish vositalari bilan to'liq jihozlangan holda avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash joyini (jarima maydoncha) taniangan yer uchastkasining
TARXI m-b 1:2000



Yer uchastkasi xaqida qisqacha ma'lumotlar: Yer uchastkasi "Shodlik" MFY hududida joylashgan bo'lib, Shimol tomondan yo'l bilan, g'arb tomondan turar joylar bilan 25.0 m, sharq tomondan bo'sh yer maydoni bilan, janub tomondan turar joylar bilan 6.0 m,, chegaralangan.

WGS-84 Koordinatalari:

| | | | |
|-----------------|---------------|-----------------|---------------|
| 1. 41°34'6.56"C | 60°57'54.77"B | 3. 41°34'8.69"C | 60°57'59.68"B |
| 2. 41°34'9.66"C | 60°57'56.87"B | 4. 41°34'5.55"C | 60°57'57.71"B |

Tuman markazidan 3200 metr masofada
Yer uchastkasi maydoni (ga): (108.0 x 74.0) 0.8316 ga

Yer fondi: Tuman zaxira yerlari


Qaysi maqsadda foydalansa bo'ladi : elektron qayd etish va kuzatish vositalari bilan to'liq jihozlangan holda avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash joyini (jarima maydoncha) tashkil qilinishi uchun

Yer turi: Qishlok xo'jaligida foydalanmaydigan boshka toifadagi yerlar

Ball baniteti : Boxolanmagan

Yer uchastkasining kadastr raqami : 23:08:08:01:04:5091

Shartli belgilar

 Ajratilgan yerlar chegarasi